# “O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan tadbir

Bugun, 11-dekabr kuni O’zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutida “O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tegishli tashkilotlar va aholi o’rtasida tushuntirishga qaratilgan tadbir o’tkazildi. Unda FA Seysmologiya hamda Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti yetakchi olimlari, soha mutaxassislari, Toshkent shahar hokimligi, Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi, Toshkent shahar Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi, Toshkent viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi, Toshkent shahar Sog’liqni saqlash boshqarmasi vakillari ishtirok etdi.












Tadbirni FA vitse-prezidenti, professor S.Mirzayev ochib berdi. Shundan so'ng Seysmologiya instituti direktor o'rinbosari, professor V.Ismailov va FVV boshqarma boshlig'i Q.Qo'chqorov ma'ruzalari tinglandi, muhokama qilindi hamda va savollarga javob berildi.